

## BOBUR — OLIM VA MUTAFAKKIR

(Mirzo Zahiriddin Muhammad Bobur haqida maqolalar)



Hasan Qudratullayev, professor

### “BOBURNOMA” ASRORI KALITI

“Marifat” gazetasi  
2008

Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarini adabiyotshunoslikda adib boshidan oʻtkazgan kunlar yilnomasi sifatida baholashadi. Ammo shoir — Bobur sheʼriyati muallifning ichki dunyosini bor shiddati bilan oʻquvchiga yetkazuvchi noyob maʼnaviy xazinadir. Bobur ruboiylarida ham olam-jahon maʼno ifodalangan. Ular “Boburnoma” bilan hamohang, uni mazmunan toʻldiradi. Agar Bobur davri, undan oldingi shoirlar ijodida ruboiy janrida anʼanaviy ishq, oshiq va maʼshuq, ayrim hollarda ijtimoiy masalalar qalamga olingan boʻlsa, Zahiriddin Bobur ruboiylarida inson ichki kechinmalarining rango-rang jilolari, uning muammolari teran aks etganini koʻramiz.

Zahiriddin Bobur tabiatidagi hayotdan imkon qadar bahramand boʻlish, uning goʻzalligini anglash va nashidasini surish odati kishini hayratga soladi. 12 yoshidan ot ustidan tushmasdan bobosi Amir Temur saltanatini tiklash uchun kurash olib borgan, muhorabalarda boʻlgan shaxs bahor nashidasidan ham bahramandlik baxtini tuyadi:

*Xotirni bahor faslida gasht oladur,  
Koʻz nurini rangi lolayu dasht oladur.  
Xush ulki, talalarda yurub sayr etsa,  
Bu fasldakim latifu dilakash taladur.*

Shoir ruboiylarining oʻziga xos xususiyatlaridan biri — unda kichik syujet, lirik qahramon bor. Quyidagi ruboiyda lirik qahramonning unchalik xurram boʻlmagan kayfiyatini mohir naqqoshdan isloh etishini soʻragani, iltijosi mavjud. Bir qaraganda, bu toʻrt misra sheʼr oson mutolaa qilinadigandek, ammo muallifning shu toʻrt misraga syujet, teran fikrni jo etganiga tasanno deysan, kishi:

*Naqqosh, mening holima tadbir etgil,  
Bir yog'lig' aro kashida tahrir etgil.  
Ul safhada men xayol qilg'on yanglig',  
Ul yorg'a mushkilimni taqdir etgil.*

Boburning Hindiston mamlakatiga yurishi, aniqrog'i, bu o'lkani o'z tasarrufiga kiritishga intilganini ayrim adabiyotshunoslar Vatandan ayriliq sifatida talqin etsalar, boshqalari sarkarda Boburning Amir Temur saltanatini qayta tiklash uchun qilingan yurishi sifatida baholaydilar. Aslida, har ikkala fikrning ham asosi bo'lsa-da, ikkinchisi ustunlik qiladi. "Boburnoma"da mazkur masalaga anchagina oydinlik kirituvchi parcha bor. U ham bo'lsa, Hindistonning shimoliy qismini egallagan, Ibrohim Lo'diy va boshqa hind sarkardalari ustidan g'alaba qozongan, ammo bu o'lkaning barcha hududlarini hali egallashga ulgurmagan Boburning to'ng'ich o'g'li Humoyun mirzoning elchilariga bildirgan fikri mavjud. «...Tengri taolodin umidvormizkim, o'shul yaqinda Hinduston viloyati qo'lga kirgay. Havoxoh va yaxshi farox havsalarimizdin Hinduston viloyatig'a qo'yub, o'zumuz mavrusiy viloyatimizga borg'aymiz(ta'kid bizniki — H.Q.). Va kerakkim, bori xalqimiz bu yurushda, Humoyung'a yo'ldosh bo'lub, ixlos ko'rsatgaylar», deb yozadi u.

Ushbu parchadan Boburning ichki kechinmalari, ruhiy holatini faqat nasriy matn talabi bilan his etamiz. Bunda adib o'zi shoh bo'lsa-da, yakkalikka bardosh va chidam berganligi, o'zini g'arib sezganligi haqida umuman so'z yuritmaydi, balki buni Vatanga qaytish orzusi orqali ifoda etadi, xolos. Quyidagi ruboiy esa, aynan shoh, adib Boburning ichki olamini o'zida mujassamlagan, "Boburnoma" matnini shu jihatdan to'ldirganligini ko'ramiz.

*Yod etmas emish kishini g'urbatta kishi,  
Shod etmas emish ko'ngulni mehnatta kishi.  
Ko'nglum bu g'ariblikda shod o'lmadi, oh,  
G'urbatta sevinmas emish, albatta, kishi.*

Zahiriddin Boburning 47 yillik umri tinimsiz muhorabalar, qarindosh-urug'lar, temuriy shahzodalar va beklarning birin-ketin qilgan xiyonatlari, farzandlarining bevaqt vafoti muhitida o'tib, umrining oxirlarida turli kasalliklar bu irodasi mustahkam kishining ham ruhiyatiga ta'sir etgan. "Boburnoma"da biz muallifning bunday mashaqqatlarga naqadar bardosh bergani, ayrim holatlarda dardning zo'rayishi ko'zlariga achchiq yosh, tanasiga chidamsiz dardni keltirib chiqarganligini ko'ramiz. Muallif shu holatlar tasvirini berar ekan, nasriy matndan ko'ngli to'lmaydi, ichki tug'yoni, hasratlarini to'la bayon eta olmaganligini sezib, ko'pincha o'z ruboiy, g'azallari bilan, ayrim hollarda boshqa buyuk adiblar — Sa'diy, Hofiz she'rlari bilan nasriy matnni boyitadi. Ayniqsa, Bobur vafotidan ikki yil oldin kasallik uni ko'p tashvishga soladi, ruhiyati tushkunlikka moyil bo'ladi. Ushbu holat tasvirida ham "Boburnoma" matnini quvvatlashga muallif o'z ruboiysini keltiradi. Bunda ruboiy uning ruhiyatini aniq ifoda etadi. Kasallik paytidagi tushkun kayfiyat, dard mashaqqati uning jismiga naqadar tashvish keltirgani aniq badiiy ifoda topgani bilan muhim: "Yakshanba kuni, muharram oyining o'n oltisida isittim, titradim, navbat-navbat bo'ldi. Yigirma besh-yigirma olti kunga tortti. Doruyi kor ichtim. Oxir basit yarashti, uyqusizlig' va tashnalig'din bisyor tashvish torttim. Bu maraz ayyomida uch-to'rt ruboiy aytili. Ul jumladan biri budur:

*Jismimda isitma kunda mahkam bo'latur,  
Ko'zdin o'chadur uyqu chu oxsham bo'latur.  
Har ikkalasi— g'amim bila sabrimdek,  
Borg'on sori bu ortadur, ul kam bo'latur.*

Bu nasriy parchada ham Boburning "uyqusizlik va tashnalig'din bisyor tashvish torttim" degan

jumlasi keltirilgan ruboiydagi isitmaning mahkam bo'lishi, ko'zdan uyquning qochishi bilan mantiqiy bog'lanib muallifning yuksak tashbehi – g'am bilan sabrning kurashi, sabrning kamayishi va g'amning yuksalishi juda yuksak badiiyat bilan ifodalangan. Boburning ana shu ichki tug'yonini nasrda ifodalash mushkulligi bois, u aytganidek, uch-to'rt ruboiy yozgan va bittasini "Boburnoma"da keltirgan.

Bu mavzuda Bobur yaratgan ruboiylarda yana nimalar nazarda tutilgan, uning kasallikdan ranj tortgan vujudida nimalar sodir bo'lgan? Boburni bezovta etgan, azob tortishiga sabab bo'lgan bu davrda yaratilgan ruboiylarning barchasi yuqoridagi "Boburnoma"da keltirilgan parchaning detallari – isitma, uyqusizlik, g'am va boshqalarning mohiyatini yanada ochishga, muallif holatini batafsilroq yetkazishga xizmat qilgan. Masalan, mana bu ruboiyda Bobur vujudini isitma tutishi – tana harorati o'ta yuksak bo'lgani ta'kidlangan. Bunda muallif mazkur darddan forig' bo'lish yo'lini uning ahvolidan xabar olgan "habib" — do'stining so'rog'idan so'ng ko'ngliga yengillik shabadasi kirib kelganligini bildiradiki, "Boburnoma" matnida mavjud emas:

*Jismimda isitma tobidin otashdur,  
Jonimg'a balou g'ussa bebarkashdur.  
Ko'p dard ila g'amdin manga noxushlug' edi,  
Sen so'rg'ali, ey habib, ko'nglum xushdur.*

Yoki mana bu ruboiy ham o'sha paytda – Bobur jismini dard iskanjaga solganda yozgan bo'lishi mumkin. Zero, muallifning tushkun kayfiyatini ifodalovchi "betoblig'", "beoblig'", "bexoblig'" kabi so'zlar avvalgi ruboiylarda ko'zga tashlanmaganki, yuqoridagi mavzuni boyitgan.

*O't soldi ko'ngulga ranju betoblig'im,  
Suv qildi bu xasta jonni beoblig'im.  
Bu ikkalasi agarchi bor muhliku sa'b,  
Lek o'lturadur tongg'acha bexoblig'im.*

Darhaqiqat, Zahiriddin Bobur "Boburnoma"ning bir necha joyida unga kasallik tashvish keltirganligini yozgan. Nazarimizda, yuqoridagi parchada keltirilganidek, 25-26 kunlik bemorlik uning umri davomida bir marta sodir bo'lgan. Irodasi mustahkam, barcha qiyinchiliklarga tob bergan Boburdek shaxs ham bebaqo umrning bu imtihoni paytida anchagina uqubat chekkan, gohida tushkunlikka tushgan. "Ko'nglimda o'tu, ikki ko'zimda suvdur" deb dil dardini bayon etgan shoir quyidagi ruboiysida yana yuqoridagi ruboiylar detallari: uyqusizlik, firoq, beqarorlik, beorom oqshomlardan foydalanib "Boburnoma"dagi mavzuni yanada yorqinroq ifoda etadi, boyitadi. O'quvchi uning xasta holiga davo topishni, ko'zlariga uyqu baxsh etishni o'ylab qoladi:

*Ko'nglimda o'tu, ikki ko'zumda suvdur,  
Men xastag'a rahm qilki, holim budur.  
G'am kunduziyu firoq shomi yanglig',  
Tunu kun menga ne qaroru, ne uyqudur.*

Biz yuqorida Bobur umrining oxirida tez-tez kasallikka chalingani, azob-uqubatlari ko'rgani haqida so'z yuritdik. Uning boshiga bu savdolar asosan Hindiston safari paytida, Bobur va uning lashkarlari uchun mutlaqo begona "bodi samum"— issiq shamolning ta'sirida yashash, Ibrohim Lo'diy va boshqa hind lashkarboshilari bilan muhoroaba olib borish jarayonida tushgan. Ana shunday sharoitda Bobur tomonidan ne mashaqqatlar bilan to'plangan lashkar, beku zobitlarning bir qismi, noqulay ob-havo bois, o'z podshohlari hukmiga bo'ysunmay, uni tashlab ketishga oshiqadilar ("Xeyli el bodi samumning ta'siridin har zamonda yiqilib-yiqilib, o'la kirishtilar. Bu jihatlarin aksar beklar va o'bdon-o'bdon yigitlar ko'ngul solib edilar"). Bobur ularga qanchadan-qancha in'omlar berib, Hindistonda qolishlarini

istagan bo'lmasin, anchagina qismi Movarounnahr va Xurosonga qaytib ketadilar.

Boburga xastalik holati, farzandlari — Humoyun, Komronning noahilligi bois saltanat tarqoqligiga asos bo'luvchi munosabatlari, Hindistonda davlatchilikning mustahkam asosini solish orzusi zaminida bu bosh-boshdoqlik, itoatsizlik uning rejasini amalga oshirishiga xalal beradi, dunyoning, odamlarning xiyonati bois dodga keladi. Masalan, "Boburnoma"da muallif nadomat bilan quyidagi satrlarni yozgani fikrimiz dalilidir: "Bu g'aribdurkim, kichik-kirimdin bu navbat Kobuldin o'tlanadurg'onda, bir nechani yangi bek qililib edi. Mening chashmdoshtim bulardin mundoq edikim, men o'tqa, suvga kirsam-chiqsam, betahoshiy bizlar bila kirgaylar va bila chiqqaylar. Men har sorig'a bo'lsam, alar mening sori bo'lg'aylar; yo'qkim: mening xilofi maqsudim so'z aytqaylar, har ish va har muhimningkim, borining kengash va ittifoqi bila o'zumuzga jazm qilduk, kengashtin qo'pmasdan burunroq ul so'z va muhimdin qaytqaylar".

Zahiriddin Boburning bu hasrati, nadomati, qo'l ostidagi kishilarning bir yoqadan bosh chiqarib, uning amr-farmonini bajarmasligi, itoatsizlikdan tashqari, lashkar tarqoqligiga sabab bo'luvchi harakatlari tartibbuzarlik xarakteriga molik edi. Boburning bu fikri, qo'l ostidagi kishilarining noo'rin xatti-harakatlari, davlatdorlikda yurt boshlig'iga qarshi bo'lish, yurt birligiga soya soluvchi harakatlar bugungi kunda ham qoralanadiki, ayrim kimsalarga ibrat darsi bo'la oladi.

Bobur mana bu ruboiyni, balki, aynan shunday kayfiyatda bo'lgan paytida yozgandir. Unda inson zotidan ozurdalik, kishi ruhiyatiga soya solishga intiluvchi kishilarning basharasini ko'rasan, ruboiy muallifiga o'sha paytda qanchalik mushkul bo'lganligini anglaysan ham:

*Davron meni o'tkardi saru somondin,  
Oyirdi meni bir yo'la xonumondin,  
Gah boshimg'a toj, gah baloyi ta'na,  
Nelarki, boshimg'a kelmadi davrondin.*

Zahiriddin Muhammad Boburning o'g'li Humoyunga yozgan maktubida ajoyib satrlar bor. U ham bo'lsa — davlatchilikda, mamlakatni boshqarishda yurt sardori hamisha atrofdagi beklar, hayotiy tajribaga ega shaxslar bilan mashvarat qilishi, yor-birodarlarini g'animat bilib, ularning suhbat va maslahatlarini inobatga olishiga e'tibor qaratilganligini ko'ramiz. Bu satrlar, tarbiyaviy ahamiyatidan tashqari, temuriylar saltanatida davlatni boshqarish, ayniqsa, podshoh bir qarorga kelishda bamaslahat ish ko'rishi lozimligi talqinida berilishi diqqatga molik: "Agar mening rizoimni tilarsen, xilvatninishliqni va el bila kam ixtilotliqni bartaraf qilg'il. Kunda ikki navbat iningni va beklarni ixtiyorlarig'a qo'ymay, qoshingg'a charlab, har maslahat bo'lsa kengashib, bu davlatxohlarning ittifoqi bila har so'z — unga qaror bergaysan".

Quyidagi ruboiyda Bobur el bilan birga bo'lish, ularning qadriga yetish va hamisha odam bir-biriga g'animat va aziz bo'lganligi bois, ehtiromini bajo keltirishdek yuksak fikrni bildirganki, yuqoridagi qarashlarini shoirona ifodalar bilan to'ldirgan:

*Ahbob, yig'ilmoqni farog'at tutungiz!  
Jam'iyatingiz borini davlat tutungiz!  
Chun gardishi charx budurur, Tengri uchun,  
Bir-birni necha kuni g'animat tutungiz!*

Zahiriddin Bobur qaysi janrda ijod etmasin, ularning barchasida muallif tarjimai holi, dunyoqarashi, umrguzaronlik daftarining bayoni, bir-birini to'ldiruvchi, "Boburnoma"da chala qolgan fikrlarning izohi, yashirin sirlari boshqa bir asarida yangicha jilo va mukammallikda, shoirona badiiy talqinda ifoda etilganligini ko'ramiz. Biz Bobur ruboiylaridagi mavzu birligini faqat "Boburnoma" bilan chog'ishtirib, ayrim misollar tahlili orqali ko'rib chiqdik, xolos. Bu masala alohida tadqiqot mavzui, uni keng miqyosda tadqiq etish Bobur shaxsiyati va ijodini yanada teranroq anglash imkonini beradi.

Sultonmurod Olim

## **BOBUR: SHOIR KO'NGLI VA SHOH SIYOSATI**

"Hurriyat" gazetasi  
2008

«Boburnoma»ning xohlagan sahifasini o'qib, bugun uchun bir ajib xulosa topasiz. Bu samimiy va tiniq, aniq va puxta, qalb ehtirosi-yu aql qudrati bo'rtib turgan o'zbekona jumlar zamirida buyuk bir shaxs, kuchli bir tiynat, teran bir nuqtai nazar, qat'iy bir siyrat, bugungi tushunchalar bilan aytganda, yuksak darajada tizimlashgan milliy mafkura bor.

Bobur lashkaru a'yonlari bilan birga Hindistonga yurish qilib, uni egalladi. Albatta, xalq o'z-o'zidan, shunchaki da'vat bilan Boburga ergashib ketavergan emas. Bobur Mirzoning odamlardan ko'zda tutgan qat'iy maqsad va ochiq manfaati shu ediki, kemaga kirganning joni - bir: «Men o'tqa, suvg'a kirsam-chiqsam, betahoshiy (o'zboshimchalik qilmasdan) bular bila (birga) kirgaylar va bila chiqqaylar. Men har sorig'a bo'lsam, alar mening sori bo'lg'aylar». Shundagina maqsad birligiga erishiladi.

Buning aksi bo'lishi mumkin emas. Ular mening maqsadimga xilof so'z aytmasligi, o'zaro kengashib, maslahatlashib buyurilgan har ish va topshiriqni bajarishga kirishayotganda hali majlis tarqamasdan turiboq undan qaytish kabi hodisalar yuz bermasligi kerak, deydi Bobur.

...Bizda isinib olish uchun hammom barpo etiladi. Hindiston shunchalik issiqki, hammomni salqinlashga moslab qurishadi. Buning ustiga, boburiylar Kobuldan chiqib, Ograni egallaganlari yili haddan ziyod issiq kelgan edi. Garm-sel esib, bunga o'rganmagan odamlarni qattiq holdan toydirdi. Boburning o'zi yozganidek, ular «Hindistonda turmoqqa rozi emas edilar, balki ketarga yuz qo'yub edilar».

Nima qilish kerak?

Bobur barcha beklarni kengashga yig'adi-da, ular oldiga qat'iy talablar qo'yib, otashin nutq so'zlaydi:

«Saltanatu jahongirlik' beasbobu olot dast bermas. Podshohliq amirlik benavkar va beviloyat mumkin ermas. Necha yil sa'ylar qilib, mashaqqatlar ko'rub, uzoq yerlar qat' etib (bosib o'tib), cheriklar yurub (lashkar tortib), o'zumuznivu cherikni harbu qitol muxotaralarig'a (urush va o'lim xatarlariga) solg'aybiz. Tengri inoyati bila bu nav' qalin yog'ilarni (dushmanlarni) bosib, mundoq keng mamlakatlarni olg'aybiz.

Holo (endilikda) ne zo'r kelibturu ne zarur qilibturkim, mundoq jonlar tortib olg'on viloyatlarni bejihat (sababsiz) solg'aybiz (tashlab ketamiz), yana borib, Kobulg'a tangdastlig' ibtilosig'a (qo'li kaltalik boshlanishiga) qolg'aybiz?!

Har kim davlatxohdur, mundin so'ng mundoq so'zlarni aytmasun! Har kim toqat keltura olmay, ketarg'a yuz qo'ysa, borg'onidin qaytmasun!..»

Vaziyat Boburdan beklariga shunday dag'dag'a qilishni, ular oldiga shunday qat'iy vazifayu shart qo'yishni taqozo etar edi.

Janglarda ko'p mardliklar ko'rsatgan Xoja Kalon, baribir, Hindistonda qolishni istamadi. Oxiri, Bobur Mirzo uni Kobul va G'azniga yuborilayotgan sov-g'a-salomlarni olib boruvchilarga boshliq qilib tayinlab, qaytishga ruxsat berdi. Unga G'azni, Gardiz va Sulton Mas'udiy hazorani inoyat qildi. Ya'ni Bobur bek norizo bo'ladigan biror ish qilgani yo'q.

Biroq...

Xoja Kalon Hindistondan ketayotganida o'zi turgan uying imorati peshtoqiga «Hindistonningni yelkamning chuquri ko'rsin» qabilidagi «Hind yurtidan eson-omon qaytib, uni yana orzu qilar bo'lsam, yuzim qora bo'lsin» degan baytini bitib ketdi:

*Agar baxayru salomat guzar ba Sind kunam,  
Siyohro'y shavam, gar havoyi Hind kunam.*

Ana xolos!

Xo'sh, bunga Bobur nima der ekan?

Aytarini aytdi, albatta: «Biz Hindus-tonda turub, mundoq zarofatomiz (kamsitadigan) bayt aytmoqu bitmoq besuvrattur (ma'qul emas)».

Chunki bunday she'rni aytish ham, uni uy peshtoqiga yozib qo'yish ham boburiylarning Hindistondagi siyosati manfaatlariga zid va xalal berguvchi hodisa edi.

Bobur Mirzoning hukmi qat'iy: «Ketmakdin bir kudurat (xafachilik) bo'lsa, bu nav' zarofattin ikki kudurattur!»

Shoir emasmi, bu voqeadan xabar topgan Bobur o'sha zahoti badiha (yodaki she'r aytish) yo'li bilan bir ruboiy to'qiydi-da, qog'ozga bitib, orqadan Xoja Kalonga jo'natadi:

*Yuz shukr de, Boburki, karamu g'affor,  
Berdi senga Sindu Hindu mulki bisyor.  
Issiqlig'ig'a gar sanga yo'qtur toqat,  
Sovuq yuzini ko'ray desang, G'azni bor.*

Bu nima, manfaatlar to'qnashuvimi? Unday bo'lsa, biz tushungan mafkura - xuddi shu!

Bir inson begona yurt iqlimiga ko'nikolmagan bo'lsa, shuni she'rga solsa, nima qilibdi! Shoir Bobur buni ajabtovur tushunadi. Ammo bu shoh Boburga aslo yoqmaydi. Chunki shugina ikki qator she'r uning siyosatiga, demakki, tuzgan davlati manfaatiga qarshi edi, uning ana shu siyosatiga xalal keltirar edi, albatta.

Avvalo, yozmasin edi. Yozsa ham, jilla qursa, elga, xususan, hind xalqiga bunday oshkor qilmasin edi. Axir, Xoja Kalon ketayotgan bo'lsa ham, biz shu yerda qolyapmiz-ku, deydi u.

«Boburnoma»da bunga o'xshash mafkuraviy o'rinlar son-ming. Shuning uchun ham adabiyotni mafkuradan xoli holda tasavvur qilib bo'lmaydi.

Abdullo Olim

## BUNYODKOR BOBUR BOG'LARI

“Ma’rifat” gazetasi  
2008

Movarounnahr va Xurosonda madaniyat, adabiyot, xalq xo'jaligi sohalarining turli tarmoqlarida Sohibqiron Amir Temur hazratlari olib borgan olamshumul obodonchiliklarni juda ko'p gapiramiz. Bobokalonimizning farmo-yishlari bilan qurilgan muhtasham binoyu madrasalar, karvon yo'llariyu katta-katta ko'priklar, madaniy-maishiy obidalar hamda ko'plab shaharlarda ul zotdan yodgorlik bo'lib qolgan bog'u rog'lar haqida adiblarimiz, salohiyatli yozuvchiyu olimlarimiz o'z asarlarida hikoya qilganlar. Sohibqiron hazratlarining bunyodkorlik yo'lida qilgan ishlari uning avlodlariga an'ana bo'lib qoldi. Bu an'anadan buyuk vatandoshimiz Zahiriddin Muhammad Bobur ham chetda qolmagan. Bobur vafotidan keyin qariyb besh asr vaqt o'tishiga qaramay, Boburshoh hazratlari va uning avlodlaridan qolgan tarixiy va madaniy meros hanuzgacha jahon xalqlarini hayratga solib kelmoqda.

Bobur hazratlarining qadamlari yetgan joyda, albatta, bitta iz qolgan. Shulardan biri Afg'oniston poytaxti Kobul shahrida bunyod etilgan ajoyib, tarovati betakror bog' - «Bog'i Bobur»dir.

Bobur Kobulga qadam ranjida qilar ekan, bu yerning ob-havosi, iqlimi, bepoyon yaylovlari, shifobaxsh suvlari ul zotni hayratda qoldirgani «Boburnoma» asarida takror-takror qayd qilingan. Mazkur bog'dagi yetti iqlimdan keltirilgan anvoyi gullar, mevali va manzarali daraxtlar hanuzgacha poytaxt shaharning ko'rki bo'lib hisoblanadi. Hozirgi kunda «Bog'i Bobur» sayilgoh bo'lib, davlat, jamoatchilik tomonidan o'tkaziladigan ommaviy anjumanlar markaziga aylangan. Boburshoh hayotlik davrida «Bog'i Istolib», «Bog'i Navro'ziy», «Bo'stonsaroy», «Chorbog'», «Bog'i Behishti», «Bog'i Nur», «Bog'i Xilvat» kabi ajoyib, betakror bog'larni bunyod etgan. Shunisi ajablanarliki, Kobulning iqlim sharoitidan kelib chiqib, bu bog'larda anvoyi gullar, mevali va manzarali daraxtlar qisman takrorlangan bo'lsa-da, ammo ayrim jihatlari bilan keskin farq qilgan. Ya'ni, bog'larning biri aksariyat mevali daraxt-lardan tashkil topsa, boshqasi anvoyi gullar bilan bezatilgan. Shuningdek, bu bog'larga Movarounnahrda Quvaning tuyatish anori, Baxmalning qirmizi olmasi, Konibodomning obinovvot o'rigi, Oltiariqning husayni uzumi, Samarqandning anjiri keltirib o'tqazilgan. Bunday bog'larning jumlasiga «Bog'i Shahraro» (keyinchalik bu bog'ning nomi boburiyozda Nuriddin Jahongirshoh (1605-1625 y.) tomonidan «Bog'u ilmu Ganja» - Ganj ilmi bog'i deb o'zgartirilgan), «Bog'i Jilovxona», «O'rtabog'», «Bog'i Sur'at», «Bog'i Mohtob»larni misol keltirishimiz mumkin. Afsuski, bu bog'larning aksariyati hozirgi kunda yozma manbalardagina qolgan.

«Bog'i Bobur»ning tog' yon bag'riga tutashgan sharq tarafida, ul zotning farmoniga muvofiq, 1508 yilda «Taxti Bobur» ko'shki qurilgan bo'lib, u yerdagi taroshlangan toshlarga quyidagi jumla o'yib yozilgan: «Taxtgohi olampanoh Zahiriddin Muhammad Bobur ibni Umarshayx Ko'ragon halladulloyi mulki fis sana 887 hijriy» (Mazmuni: Zahiriddin Muhammad Bobur ibni Umarshayx Ko'ragon olampanoh taxti mulki sanasi 887 hijriy yil).

Bundan tashqari, Kobuldagi «Baloisor» qasri ham Boburshoh tomonidan qurilgan bo'lib, keyinchalik uning o'g'li Mirzo Komron tomonidan ta'mirlangan, hozirgi kungacha uning xarobalari yetib kelgan, xolos. Valiahd shahzoda Mirzo Humoyun Nasriddin 1508 yilda ana shu qasrda tavallud topganligi tarixiy hujjatlarda qayd etilgan. Jalolobod shahri ham shaxsan Boburshohning tashabbusi bilan «Bog'i Safo» bilan bezatilgan. Boburshoh 1508 yilda vali'ahd farzand tug'ilishi sharafiga Odinapur shahrida «Bog'i Vafo» deb nomlangan bog'ni bunyod qilganlar. Bu bog'dagi gullar, mevali va manzarali daraxtlar, asosan, Movarounnahrda keltirilgan bo'lib, ul zot bu haqda «ona yurtimni eslatib tursin deb niyat qildim» degan ekanlar. Boburshoh har galgi safari oldidan ana shu bog'da ziyofatlar, harbiy harakatlarga tayyorgarlik yuzasidan mashvaratlar o'tkazgan. Boburshoh 1506 yilda Kandaxor shahrida

«Chorbog'i Kandahori», undan so'ng shu manzilda «Bog'i Chorbog'» bog'ini bunyod qilganlar. Bu bog' Arganbob daryosining qirg'og'ida joylashgan bo'lib, hanuzgacha go'zalligi, tarovati bilan barchani o'ziga mahliyo qilib keladi.

Kandahor shahrida saksonta sangtarosh to'qqiz yil toshlarga ishlov berib, «Qirq zina» ansamblini barpo etgan. Bu toshlarga Boburshoh va uning zurriyodlari Mirzo Humoyun, Mirzo Komron, Mirzo Askariy, Mirzo Hindollarning ismlari o'yib yozilgan. 1542 yili Akbarshoh tavallud topishi bilan, Mirzo Humoyunning amriga muvofiq, uning ismi ham qo'shib o'ydirilgan.

1598 yilda Akbarshoh bu toshlarga qo'shimcha ravishda o'z farzandlarining ismlarini yozdirgan.

Bobur Kobulda umrguzaronlik qilgan davr shaharning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etgan. Afg'onistonning atoqli olimi Ustod Ali Ahmadi Ko'hzod «Baloisori Kobul va uning tarixiy oqimlari» nomli tarixiy asarida Bobur va Kobul shahri to'g'risida quyidagi jumlaning keltiradi: «Kobulda Boburning ezgu-niyatlari amalga oshdi va Kobulga mehr-muhabbati tushdi, shu nuqtai-nazardan bu maskanni obod, ko'rkam bo'lishiga hech qanday mehnat va mablag'larni ayamadi. Shuning uchun poytaxtni va o'z qo'li bilan yaratgan bog'ni hech qaysi bir farzandiga meros sifatida qoldirmadi, shahar va bog' abadiy uning tasarrufida ekanligini takror-takror ta'kidlab ketdi».

Hindistonning Agra shahrida Bobur vafotidan oldin farzandlariga o'z hokini Kobulda, o'zi yaratgan bog'da dafn etishni vasiyat qildi. Bu uning Kobulga bo'lgan hurmati, mehr-muhabbatini isbotlovchi dalillaridan biridir. Boburshohning jasadini valiahd amirzoda Mirzo Humoyun fillar karvonida Kobulga keltirib, o'zi vasiyat qilgan boqqa dafn qildi. Movarounnahrlik me'morlar Bobur qabriga sag'ana, ustiga ko'shk ayvon bunyod etishdi. Mirzo Humoyun Kobul daryosidan boqqa suv keltirish inshootlarini qurdirib, olampanoh hoki dafn etilgan tepalikka suv chiqardi va bog'dagi daraxt, gullarni o'z oqimi bilan sug'orilishiga imkon yaratdi.

Bobur bog'i o'z nomi bilan shu kungacha jahonga mashhur. Boburning qabri bir necha marta ta'mirlangan. Birinchi da'fa Shoh Jahon buyuk bobolari dafn etilgan sag'ana va masjidni, bog'ni qaytadan ta'mirlab, sayyohlar ziyorat qiladigan maskanga aylantirgan.

Dunyoning barcha qit'alaridan bu tabarruk qadamjoga tashrif buyurgan davlat rahbarlari, olimu fuzalolar, oddiy sayohlar ushbu dargohni ziyorat qilmasdan, donishmand olim, sulton Zahiriddin Muhammad Boburga ta'zim bajo etmasdan ketmaydilar.

Boburning bunyodkorlik faoliyati ham huddi Sohibqiron Amir Temur kabi farzandlarga me'ros bo'lib qoldi.

Asrlardan beri butun jahon ahlini lol qoldirib kelayotgan Lal Qal'adagi Toj Mahal yodgorligi Shoh Jahon davrida qurilgan bo'lib, bunga 28 yil Movarounnahr va Xurosonning eng atoqli minglab usta-me'morlarining xizmatlari singgan. Ushbu binoda barcha maqsadlarga mo'ljallangan qurilmalar bo'lib, uning ichidagi hammom alohida o'rinni egallaydi. o'aroyib tomoni shundaki, hammom bitta sham bilan isitilgan. Olimlar bu sirni ochish uchun ko'p yillar mobaynida tahlil o'tkazib, hammom qozonxonasining tepa qismi, atrofi, devorlari simmetrik ravishda bo'lgan yorug'likni o'ziga qabul qilib, uni issiqlik energiyasiga aylantirib beradigan kuchli quvvatga ega bo'lgan oynavand linza moslamalaridan tashkil topganligini, linzalarning joylashtirilishidagi mutanosiblik hatto bir millimetrga ham farq qilmasligini aniqlaganlar. O'rug'lik to'qqiz karra bo'yicha sinib tushib, geometrik progressiya shaklida to'qqiz marta to'qqiz karra to'qqizga ko'paytirish quvvatiga ega bo'lgan, bitta shamning yorug'ligi natijasida 80-1000 S issiqlik darajasini bergan.

Inglizlar Hindistonni istilo qilgan davrlarda bu sirni ochish maqsadida ushbu oynalarni va g'ishtlarni alohida-alohida ajratib olganlar, natijada qayta joyiga qo'yilganda isitish quvvati yo'qolgan va o'z xoliga qaytmagan.

Boburiylar zamonida Lal Qal'ada podshohlar oilasi taom yeydigan maxsus oshxona bo'lgan. Taom tayyorlash, dasturxonga tortish va iste'mol qilish o'ziga xos usulda amalga oshirilganligi haqida ham ajoyib ma'lumotlar bor. Boburshoh hazratlari va ul zotning zurriyodlari hindlarning urf-odatlariga ehtiromlar bilan qaragan holda, mahalliy xalq uchun muqaddas bo'lgan qoramol go'shti va boshqa ibodatga kiritilgan o'simliklardan taom tayyorlashni ta'qiqlaganlar, bu esa boburiyodalarga nisbatan



hind xalqining hurmatini oshirgan.

Taomni forsiyzabon oshpaz qizu ayollar pishirgan, das-turxonga tortish vazifasi hind qizlariga topshirilgan. Podshoh oilasi dasturxonidagi har bir taomlarni oldin turkiy qizlar tatib ko`rgan. Bu bilan Boburshoh o`z tasarrufidagi barcha millatlarga hurmat-ehtiromini bildirgan. Bu hislat Zahiriddin Muhammad Bobur hazratlaridan avlodlariga meros sifatida o`tib kelganligini saroy yozuvchilari bir necha bor o`z asarlarida ta`kidlab o`tganlar.

**Zokir Rayimjonov**  
**Isroil Xurramov**

## **BOBUR BUYUK SHAHARSHUNOS OLIM**

**“Ma’rifat” gazetasi**  
**2008**

«Boburning Hindistonga kelishi tufayli Hindistonda buyuk o'zgarishlar sodir bo'ldi, me'morchilikda va madaniyatning boshqa sohalarida yangicha taraqqiyot yuz berdi.» J.Neru

O'zbekiston boy tarixiy o'tmishga, o'zbek xalqi ulkan milliy merosga ega. Shubhasiz, ana shunday oltin merosimizdan biri o'zbek xalqining buyuk farzandi, bobokalonimiz Zahiriddin Muhammad Bobur yaratgan shoh asar «Boburnoma»dir. «Boburnoma» tom ma'nodagi entsiklopedik asar. Uning originalligi shundaki, asarda muallif asosan o'zi ko'rgan-kechirgan, bilgan narsalarni yozadi. Eshitgan yoki adabiyotlardan foydalanilgan bo'lsa, albatta, izohlab o'tadi. «Boburnoma»dan siyosatchilar, etnograflar, aholishunoslar, geobotaniklar, zoogeograflar, iqlimshunoslar o'zlari uchun kerakli bo'lgan juda ko'p faktik materiallarni ajratib olishlari mumkin. Lekin shuni alohida qayd etishimiz kerakki, u tom ma'noda aholi geografiyasiga va uning ajralmas qismi bo'lgan shaharshunoslikka (geourbanistika) bag'ishlangan asar hamdir. Bobur tasvirlagan hamma voqealar ma'lum bir vaqt va geografik hududda ro'y bergan. U tilga olgan shahar, tuman, viloyat, davlatlar hozir ham mavjud, ko'pchiligining nomi o'zgargan, ba'zilari esa yo'q bo'lib ketgan, ayrimlari kichik qishloq holiga kelgan yoki yirik shaharlarga aylangan.

Bobur shaharlarning geosiyosiy, ayniqsa, harbiy strategik va harbiy geografik o'rne va mavqeiga juda katta e'tibor bergan va tasvirlay olgan.

«Sayxun suyining shimoli tarafidagi qasabalardan biri Axsidir. Kitoblarda Aksikad bitirlar. Farg'onada, Andijondin so'ngra mundin ulug'roq qasaba yo'qdur. Andijondin g'arb sari 9 yig'och yo'ldur. Umar Shayx Mirzo muni poytaxt qilib erdi. Sayxun daryo-si qo'rg'onning ostidin oqar. Qo'rg'oni baland jar ustida voqe bo'libdur. Xandaqining o'rniga amiyk jarlardur. Far-g'onada (viloyat haqida gap ketmoqda) muncha berk ko'rgan yo'qtur». (Boburnoma, T.: 1990, 8-bet). Hozirgi kunda Axsikent xarobalari qolgan, xolos. Amir Temur va Bobur davridagi katta strategik ahamiyatga ega bo'lgan, «Boburnoma»da bir necha bor qayd etilgan bu shahar Shohruxiyadir.

Bobur 1494 - 1495 yillari Kendirlik dovoni (hozirgi Qamchiq) orqali o'tib Shohruxiya shahriga tog'asi Sulton Mahmudxon bilan uchrashishga keladi. uning asosiy maqsadi Amir Temur bobosining Samarqanddagi taxtini egallash uchun tog'asidan harbiy yordam so'rash edi. Shohruxiyaning qanday qal'a ekanligi, uning geostrategik ahamiyati, qal'a ostonasida bo'lgan urushlar «Boburnoma»ning 9 ta joyida qayd etilgan. Bobur ma'lumotlarining qimmatini shundaki, u shaharni o'z ko'zi bilan ko'rgan va bu yerda bir necha marta bo'lgan.

Bobur Movaraunnahr, Xuroson, Afg'oniston, Hindistondagi o'zi ko'rgan, bilgan shaharlarning iqtisodiy geografik va siyosiy geografik o'rinlarini tahlil qilgan. Buyuk Ipak yo'lida joylashgan, o'sha davrda juda qulay iqtisodiy geografik o'ringa ega bo'lgan Kobul va Qandahor shaharlarini ta'riflab quyidagicha yozadi: «Xurosondan Hindistonga boradigan karvon yo'llarida ikkita shahar bor. Biri - Kobul, yana biri - Qandahor. Shimol tomondan Qoshg'ar-, Farg'ona, Turkiston, Samarqand, Buxoro, Balx, Hisor va Badaxshondan karvon Kobulga keladi, g'arb tomondan - Xurosondan karvon Qandahorga keladi.

Kobul Hindiston bilan Xuroson o'rtasidagi vositachidir. Bisyor yaxshi savdaxonadir.

G'azna shahri va G'azna viloyati kichkinagina joydadir. Bu yerlarni Zabuliston deb ham atashadi. G'azna viloyatida atigi to'rt-besh tegirmon suv bor. G'azna shahri va uning atrofidagi qishloqlar ana

shu suvdan ichadi va ekinlarini sug'oradi. Yana boshqa qishloqlar korizlardan suv ichadi. Sulton Mahmud tomonidan qurilgan to'g'onlar Shahobiddin Guriy tomonidan buzib tashlangan, natijada hozirgi kunda suv tanqisligi sezilmoqda. Men ushbu to'g'onlarni tiklash uchun pul ajratdim. O'nlab, yuzlab shaharlari va qal'alariga ega bo'lgan hukmdorlarning shunday ko'rimsiz ovloq joyni poytaxt etib tanlaganliklarini hech aqlimga sig'dirolmayman» (126-bet). Demak, Boburning fikricha, G'azna shahrining mikrogeografik, makrogeografik, mezogeografik o'rnini uning poytaxt bo'lishi uchun to'g'ri kelmaydi.

Bobur shaharlarni ta'riflabgina qolmasdan o'zi shaharlarni obodonlashtirishga, shaharlarda bog'lar yaratishga, turli xil madrasalar, jome masjidlari, qasrlar qurishga ham katta hissa qo'shgan. Boshqa mamlakatlardan, ayniqsa Samarqand, Buxoro, Andijon, Marg'ilondan kelgan ustalar juda katta izzat-ikromlar bilan kutib olingan. Hind ustalari ham kamsitilmasdan, ularga boshqa ustalar bilan tengmating miqdorda haq to'langan. Bobur Hindistonda juda oz muddat - atigi to'rt yil sakkiz oy (1526-1530) bo'lgan. Lekin, ushbu davr ichida uning qurilishlarida yuzlab kishilar mehnat qilgan. Bu haqda «Boburnoma»da quyidagi satrlarni o'qish mumkin: «Nechukkim «Zafarnoma»da Temurbekning «Masjidi Sangan» imoratini qilurda Mulla Sharif mundog' mubolag'a bila bitibdurkim Azarbayjon va Fors va Hindiston va yana o'zga sangtaroshlardan har kunda ikki yuz kishi masjidda ish qilurlar edi. Bir Ograda (Agra) ushbu Ograning sangtaroshlaridan mening imoratlarimda har kunda olti yuz sakson kishi ish qilurlar edi, yana Ograda Sehrida va Biyonada va Dildurda va Guvalyorda ming to'rt yuz to'qson bir sangtarosh har kunda mening imoratlarimda ish qilurlar edi». (Boburnoma. M.Sale tarjimai T., 1993 yil, 292-bet). Bobur Kobul, Hirot, Samarqand, Buxoro, hatto Makka va Madina shaharlaridagi jome masjidlarini, buyuk shaxslarning maqbaralarini, bog'larni va boshqa ziyoratgohlarni ta'mirlash uchun har doim sovg'a-salomlar bilan birga, katta miqdorda oltin va kumush tangalarni (pullarni) ham jo'natib turgan.

Bobur shaharlarni rekreatsiya, ya'ni dam olish nuqtai nazaridan ham nihoyatda mohirlik bilan ta'riflay olgan. Shaharlar havosining yengilligi yoki tozaligi, iflosligi, changligi, namligi yoki quruqligi «Boburnoma»da o'z aksini topgan: «Andijon havosida kuzda ko'p odamlar bezgak kasaliga muhtal bo'ladi. Shahar atrofi ov qilishga qulay, ayniqsa to'qayzorlarida qirg'ovuli nihoyatda ko'p. O'sh havosi nihoyatda yaxshi, oqar suvlari ko'p. Bahori juda chiroy ochib keladi, qalin lola va gullar ochilur. Andijon daryosi hozirgi O'shning o'rtasidan oqib o'tib, Andijonga boradi, daryoning har ikkala qirg'og'i bog'lar bilan qoplangan. Ushbu bog'larda, bahorda ochiladigan boychechaklar juda ham chiroylidir. Farg'ona viloyatida O'sh havosi sofligiga va tozaligiga teng keladigan shahar yo'qdir.

Xo'jand shahri yonidan Sirdaryo oqib o'tadi. Xo'jand atrofida hayvonlar va yovvoyi qushlarni ov qiladigan juda yaxshi joylar bor. Oq kiyik, bug'u, qirg'ovul, g'oz-o'rdaklar bu yerda nihoyatda ko'p. Lekin, havosi juda nam va og'ir. Kuz oylarida odamlari bezgak bilan og'riydilar. Dedilarkim, hatto chumchuqlar ham bezgakka chalinur». (31-bet). Bularidan tashqari, Bobur o'zi ko'rgan, bilgan o'nlab, masalan: Samarqand, Buxoro, Qarshi, Hirot, Balx, Badaxshon, Qunduz, Peshovar, G'azna, Bxira, Badjaur, Agra, Dehli, Banoras, Bongola shaharlarining tabiiy geografik o'rniga, ya'ni qaysi tog' etagida, qaysi daryo, ko'l, dengiz bo'yida, adir va tekislikda, cho'lda joylashganligini, ularning tabiatining qulay yoki noqulay tomonlarini nihoyatda sinchkovlik bilan tasvirlab bera olgan.

Boburning shaharlar etnogenezi va etnografiyasi haqidagi ma'lumotlari ham g'oyat qimmatli va qadrlidir.

«Andijon aholisining asosiy qismi turkiylardir. Andijonda va uning bozorlarida turkcha bilmaydigan kishining o'zi yo'qdir. Xalqning tili adabiy tilga yaqindir. Alisher Navoiy Hirotida tug'ilib o'sgan bo'lsa ham, ushbu tilda ijod qilgan.

Isfaraning barcha aholisi sortlardir. Ular forscha gaplashadilar. Qarshining asosiy aholisi turkiylardir. G'azna shahrining ko'chmanchi xalqi Hozoralar va afg'onlardir. Qobul va uning atrofida sortlar, pashoiylar, tojiklar, parochilar, afg'onlar yashaydi. Qobul va uning viloyatlarida o'n bir, o'n ikki tilda gaplashadilar: arab tilida, fors tilida, turkiy tilida, mug'liy tilida, afg'oniy, pashoiy, parochiy, tabriy, barg'iy, lamg'o-niy. Boshqa biron bir joyda munchalik har turli qavm va tillar borligi ma'lum emas.»

Bobur o'sha davrdagi shaharning arxitekturasini, diqqatga sazovor joylarini, ya'ni: madrasalar, masjidlar, muqaddas ziyoratgohlar, qabrlar, shahardagi bog'lar, ayniqsa shahar arkalari (ichki qal'a) haqida batafsil ma'lumotlar bergan. Ma'lumki, Boburshoh Xuroson hukmdori Husayn Boyqaroning taklifiga binoan 1505 yili Hirotga keladi va u yerda 20 kuncha turib qoladi. (O'sha yili Husayn Boyqaro barcha o'g'illarini qo'shinlari bilan yig'ib, Shayboniyxon ustiga yurish qilmoqchi edi, lekin o'sha yili u olamdan o'tib qoladi.) Bu davr-da Hirot jahonning eng go'zal shaharlaridan biri edi. Bobur ham ushbu shaharga juda-juda havasi kelgan. U yozadi: «Men Hirotda Alisherbekning uyida yashadim. Har kuni otda shaharning o'zim ko'rmagan joylarini tomosha qilar edim. Shu qisqa davr ichida men Hirotda Alisherbekning bog'i va Guzargohi, Shayx Bahovuddin Umar mozori va maqbarasini, mavlono Abdurahmon Jomiy mozori va maqbarasi, Ulug'bekning Gavharshodbegim (Ulug'bekning onasi) madrasasi va maqbarasini, Hirot jome masjidini tomosha qildim» («Boburnoma», 172-bet).

«Boburnoma»da hali yechimini kutayotgan, aniqlanishi kerak bo'lgan geografik joy nomlari, ayniqsa shaharlar va qal'alarning toponimlari, qavm, elat, qabila, urug'-aymoq va millatlar etimologiyasiga oid bahsli bo'lgan atama va tushunchalar mavjud.

Ma'lumki, Abu Rayhon Beruniy jahonning eng ulug' olimlaridan biridir. Uning asosiy hayoti G'azna shahrida o'tdi. Umrining oxiriga qadar shu shaharning fuqarosi bo'lib turdi. Hindistonga tez-tez borib, hindlarning tarixi, fani, tili va madaniyatini o'rganib, Boburdan 500 yil oldin mashhur «Hindiston» kitobini yozdi. Kitobni Beruniy 1030 yili tugatgan, oradan 500 yil o'tib ikkinchi o'zbek o'g'loni Bobur Hindistonda 1530 yili o'zining «Boburnoma» asarini yozib tamomladi.

Nega «Boburnoma»da Beruniy haqida hech gap yo'q. Bobur Samarqand shahrining geografik kengligini va uzunligini (geografik koordinatalarini) ko'rsatgan. Ma'lumotlarni Beruniydan yoki Ulug'bek jadvalidan olganmi, u haqda lom-mim demagan. Axir Beruniy deyarli hamma kitoblarida O'rta Osiyo shaharlarini tilga olgan, ularning turli jihatlari - yo tarixi, yo iqlimi, yoxud aholisi ta'riflangan. Uning «Qonuni Ma'sudiy» kitobidagi geografik jadvalda 603 joyning 85 tasi O'rta Osiyoga tegishlidir. (X.Ha-sanov. O'rta Osiyolik geograflar va sayyohlar. «O'zbekiston», T., 1964 yil, 128-bet.) Bas, shunday ekan, ulug' Boburning buyuk Beruniy haqida yozmasligi, uni tilga olmasligi mumkin emas. Boburning jismida jasurlik, mardlik, tantilik, bag'rikeng-lik har doim jo'sh urgan-ku. U ayniqsa buyuk olimlar, yozuvchilar, shoirlar, rassomlar ijodiga tan berib, «Boburnoma»da ularni ko'klarga ko'tarib yozgan-ku. Masalan, uning Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Kamoliddin Behzod, Ulug'bek haqidagi maqtovlari fikrimizning yorqin dalilidir. Ustozimiz X.Hasanov o'zining «Boburning geografik merosi» kitobida shunday fikr bildirganlar: «Boburnoma»da Beruniy ismi tilga olinmaganligiga ishonmang. Chunki biz Boburnomaning yarmidan ko'prog'ini ko'rganimiz, o'qiganimiz yo'q. O'sha g'oyib varaqlarda Beruniydek ulug' siymo tilga olinganligi va taqdirlanganligi ajab emas». Ustozning fikrini tasdiqlaydigan bir mulohazamiz bor. Boburshoh G'azna shahrini qo'lga kiritganida, u yerdagi Sulton Mahmud G'aznaviy, uning o'g'illari Mas'ud Sulton va Sulton Ibrohim mozorlari va u yerdagi Sulton Mahmud davrida qurilgan, lekin Bobur borganda buzilib yotgan to'g'onlarni ko'rgan, ularni tuzatishga buyruq bergan. Nega Beruniyning mozori haqida gap yo'q? Axir Beruniy bobomiz qabri G'azna shahrida bo'lgan-ku. Demak, Beruniy haqida «Boburnoma»da alohida sahifalar bitilganligi uchun, u haqida bu yerda yozmagan bo'lishi mumkin.

Bobur Temuriylar naslini har doim ko'klarga ko'targan, Temurzodalarning tirikligida ham, o'tganlaridan keyin- ham obro'larini to'kmaslikka, tarixda mash'um nom qoldirmasliklariga harakat qilgan.

Bobokalonimiz ta'riflab bergan shaharlar, qal'alar, qo'rg'onlarning tarixini tahlil qilish, hozirgi geografik joylashgan o'rnini, ayniqsa ularning toponimlarini o'rganish juda katta ilmiy va nazariy ahamiyatga ega. Biz Bobur ta'riflab bergan shaharlarning bir qismigagina izoh berdik. «Boburnoma»da bunday izohini kutayotgan shaharlar, qal'alar, qo'rg'onlar nomi o'nlab, yuzlab topiladi.

Ko'rinib turibdiki, Boburning o'sha davr urbanizatsiyasi haqida bergan ma'lumotlari haligacha o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Bobur geografik merosining boshqa qirralarini o'rganish, uni keng

jamoatchilik ommasiga yetkazish geograflarimiz oldida turgan mas'uliyatli va shu bilan birga sharafli vazifadir.